



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIIY-
SIYOSIIY FANLAR FAKULTETI



Ro'yxatga olindi: № 603104000- IJS1304 IJS1408 2024 "14" 10 yil	 "TASDIQLAYMAN" SamDU rektori: R.I.Xalmuradov 2024 yil " " "
---	--

IJTIMOIIY SIYOSAT

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	310 000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	603104000 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi:

Fan/modul kodi IJS1304 IJS1408	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	ECTS – Kreditlar 8	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy fan	O'zbek		6 soat	
1.	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
	Ijtimoiy siyoat	104	136	240

II Fanning maqsadi (FM)

2	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga ijtimoiy siyosat » o'quv fani talabalarda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish davrida ijtimoiy himoya tizimining o'rni va roli, moddiy va ma'naviy ko'makka ehtiyojmand oilalarga yordam berish, aholining turli guruh va qatlamlariga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatning mohiyati hamda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni anglash ko'nikmalarini shakllantirish. Fanning vazifasi - bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining kam ta'minlangan, ijtimoiy yordamga muhtoj turli qatlam va guruhlarini ijtimoiy himoya va muhofaza qilish tizimini o'ziga xos xususiyatlari, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan va oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun va mohiyati to'g'risida talabalarga bilim berishdan iborat.			
---	---	--	--	--

Fan mazmuni

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

1-semestr. (26)

M1	Ijtimoiy siyosat fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Ijtimoiy siyosat va prognoz faniga kirish fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Ijtimoiy siyosat va prognoz to'g'risidagi fanlar, uning o'ziga xos xususiyatlari. Siyosat nazariyasi, siyosiy institutlar va jarayonlar. Ijtimoiy siyosat va prognoz faniga kirish, fanini o'rganishning ahamiyati.
M2	Ijtimoiy siyosat muammolari. Siyosat tushunchasi ma'no-mazmuni, turli xil talqinlari. Siyosatning jamiyat hayoti sohalari bilan aloqadorligi va unga ta'siri. Siyosatning asosiy shakllari va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Ijtimoiy bashorat tushunchasi, turlari, tiplari, metodlari. Kelajakni prognozlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Prognozlashtirishning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri.
M3	Ilk siyosiy qarashlar va nazariyalarning paydo bo'lishi hamda rivojlanish bosqichlari. Siyosat haqida ilk qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rimdagi siyosiy fikrlar. G'arb Uyg'onish davri mutafakkirlari N.Makiavelli, T.Gobbs, J.Lokk, E.Berk, Sh.Monteske, J.J.Russo, T.Jefferson, A.Gamilton, T.Medison, I.Kant, G.V.Gegelning siyosiy ta'limotlari. Hozirgi davrdagi siyosiy nazariyalar va konsepsiyalar.
M4	Ijtimoiy siyosat amalga oshirishda ijtimoiy institutlarning o'rni. Ijtimoiy institut tushunchasi va turlari. Ijtimoiy ishda oilalar bilan ishlash. Oila va uning turlari. Oila va nikoh. Oilaviy munosabatlar va uning jamiyatdagi o'rni. Ajralishlar va uning oqibatlari. Oila sotsiologiyasi va uning doirasidagi muammolar. YOsh oila va ular bilan ijtimoiy ish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga qaratilgan ijtimoiy siyosat. Oilalar mustahkamligini ta'minlashda

	ijtimoiy ishchilarning o'ri. Ta'lim ijtimoiy institut sifatida. Din sotsiomadaniy institut sifatida. Mahallaning institutining ahamiyati. Ijtimoiy himoyaga muhtojlarga yordam berishda mahallaning o'ri. Mahalla jamg'armasi va uning vazifalari.
M5	Jamiyat farovonligi va tengsizlik. Jamiyatning sotsial kapitali tushunchasi va uning asosiy omillari. Sotsial tengsizlik va uni o'lchash usullari. Tengsizlikning me'yor va me'yordan ortiqqligi. Me'yordan ortiq tengsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari. Jamoat ongida sotsial tengsizlik legitimligi. Me'yordan ortiq tengsizlikni qisqartirish va jamiyatda sotsial kapital muammolari. Qashshoqlikni tadqiq etish tarixi.
M6	Ijtimoiy rivojlantirishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish. Ijtimoiy prognozlashtirish metodlari. Ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish tizimi. Pul-kredit siyosati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o'ri.
M7	Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasi Xorijiy davlatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish. Skandinaviya mamlakatlarida (Finlyandiya, SHvetsiya) qo'llanilayotgan sotsial-demokratik model. Neoliberal model (AQSH). Tadbirkor va kasaba uyushmalarining vazifalari. Neokonservativ model (Germaniya). Ijtimoiy himoya davlat kafilligida, xususiy tadbirkorlar va davlat federal byudjeti
M8	Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda mahalla institutining o'ri. Ta'lim ijtimoiy institut sifatida. Din sotsiomadaniy institut sifatida. Mahallaning institutining ahamiyati. Ijtimoiy himoyaga muhtojlarga yordam berishda mahallaning o'ri. Mahalla jamg'armasi va uning vazifalari.
M9	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati, mazmuni va maqsadlari. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning o'ri. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlar. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi jamg'armalar faoliyati. Davlatning ijtimoiy kafilligi.
M10	Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi. Kam ta'minlanganlik: tushunchasi, mezonlari va shakllari. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi. Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va uning moliyaviy ta'minlash shakllari. Onalar huquqi va erkinliklarini himoyalash bo'yicha asosiy xalqaro hujjatlar. Ayollar bilan ijtimoiy ishning ijtimoiy asoslari.
M11	Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning mohiyati. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish shakllari va mexanizmlari. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishda Xalqaro Mehnat Tashkilotining o'ri. Kasaba uyushmalari va ularning rivojlanish tarixi. Kasaba uyushmalari ularning faoliyatida xodimlarni himoyalash.
M12	Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning xorijiy tajribalari. Ishsizlik, uning ta'rifi. Ishsizlik sabablari. Ishsizlik turlari: funktsional, tarkibiy, davriy yashirin. Ishsizlik ko'lamini hisoblash usullari. Ishsizlikning iqtisodiyot uchun oqibatlari: milliy va individual darajada. Ishsizlik iqtisodiyotning uzluksiz va normal amal qilishining muhim shartlaridan biri sifatida. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari. Turli yoshdagi odamlar ichidagi vaziyat. Ishsizlikni qisqartirishning ikki bosh yo'nalishi. O'zbekistonda ishsizlik bilan kurash amaliyoti. YOshlar bandligi va ishsizlik. Ayollar bandligi va ishsizlik.

M13	Yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi. Keksalarga nisbatan olib boriladigan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari. Yolg'iz keksalar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishning xususiyatlari. Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining amal qilishi. Yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilish imkoniyatlari.
M14	Keksalarni ijtimoiy himoyalash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston Respublikasida pensiya islohotlari mazmun-mohiyati. Kexsa fuqarolarga maxsus uy-internatlarda xizmat ko'rsatish. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqidan foydalanadigan oila a'zolari. Oila a'zosining qaramoqda bo'lishi va mehnat qobiliyatini yo'qotganligi tushunchasi. Nafaqa.
M15	Ijtimoiy sohani rivojlantirish zaruriyati. Bozor iqtisodiyotiga utishda ta'lim tizimini tartibga solish. O'tish davrida sog'likni saklash tizimi. Mintakada uy-joy va kommunal xo'jaligi rivojlanishini tartibga solish. Mintakada Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish
M16	Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning xususiyatlari va mexanizmlari. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning mohiyati va tamoyillari. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari. Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari.
M17	O'zbekistonning ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustivor yo'nalishlari. Huquqiy demokratik davlatning barpo etilishi. Erkin fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslarining yaratilishi. Jamiyat ma'naviy hayotining yuksalishi.
M18	Ijtimoiy ta'minot tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Ijtimoiy ta'minot tizimining mohiyati va uning shakllanishi. Ijtimoiy nafaqalar va ularning turlari. Minimal ijtimoiy standartlar va me'yorlar. Ijtimoiy transferlarni tayinlash va moliyalash tartibi.
M19	Pensiya tizimining mohiyati va uning isloh qilish. Pensiya tizimining mohiyati, tamoyillari va mexanizmlari. Pensiya ta'minoti va uning turlari. Pensiya tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari. Pensiyaning iqtisodiy mohiyati. Pensiya ta'minotida qanday asosiy tamoyil va mexanizmlari. Jahon amaliyotida pensiya tizimi.
2-semestr. (26)	
M1	Ijtimoiy sug'urtaning mazmuni va mohiyati. Ijtimoiy sug'urta: tushunchasi, mohiyati va shakllari. Ijtimoiy sug'urtaning milliy tuzimlari. Ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari. Ijtimoiy sug'urta modellari. Majburiy sug'urta
M2	Bola huquqlarining asosiy kafolatlari. Bolalarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha asosiy xalqaro hujjatlar. Bola huquqi. Bolaning oilaviy tarbiya olish huquqi. Ota-onalarning huquq va majburiyatlari. O'zbekistonda ayollar va bolalarni ijtimoiy himoyalashning davlat kafolatlari. O'zbekistonda ayollar va bolalar manfaatlarini himoyalash bo'yicha jamoat tashkilotlarining faoliyati.
M3	Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy siyosatni amalga oshirish modellari. Evropa Hamjamiyati mamlakatlarida ijtimoiy dasturlar xarajatlarining tarkibi,

	manbalari ijtimoiy islohatlarning o'ziga xosligi. YAponiyada ijtimoiy siyosatning shakllanishi va amalga oshirilishi. YAponiya davlatining iqtisodni va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishdagi o'zni. YAponiya ijtimoiy munosabatlari tizimi negzini tashkil qiluvchi besh element. SHved modeli. Aqsh modeli. Rossiya modeli.
	Ijtimoiy imtiyozlar. Sotsial sug'urta. Ijtimoiy yordam. Adresli ijtimoiy qo'llab quvvatlash. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash turlari. Ijtimoiy himoya ob'ekti. O'zbekistonda pensiya tizimi va uning islohoti. Imkoniyati cheklanganlarga ijtimoiy ko'mak berishning o'ziga xosligi. O'zbekistonda yoshlar siyosati.
M4	Qashshoqlikni tadqiq etish tarixi. Qashshoqlikka asosiy yondoshuvlar - absolyut, nisbiy, sub'ektiv, kategorial. Absolyut va nisbiy qashshoqlik. «Iste'mol savatchasi», «qashshoqlik chegarasi» va yashash minimumi. Vaziyatli va surunkali qashshoqlik. Qashshoqlik ildizi va resurslar tanqisligi. «Qopqon» qashshoqlik va qashshoqlik madaniyati. Qashshoqlar va anderklass.
M5	Demografik siyosat va bashorat. Demografik siyosat maqsad va vazifalari, Demografik siyosat o'tkazish uslublari. O'zbekistonda demografik siyosat. Demografik bashorat turlari. Demografik bashorat uslublari. Demografik bashorat tarixi.
M6	Ijtimoiy siyosatni sotsiologik tadbiq etish muammolari. Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosi. Ijtimoiy tizimlar. Deviant xulq-atvor tushunchasi.
M7	Siyosiy institutlar va jarayonlar. Siyosiy institut tushunchasi, ma'no-mazmuni. Siyosiy institutlar. Siyosiy partiyalar. Partiyalarning paydo bo'lishi va shakllanishi. Partiyalarning turlari: kadrlar va ommaviy, demokratik, avtoritar va totalitar, etakchi, muxolif partiyalar va h.k. Partiyaviy tizimlar. O'zbekistonda siyosiy partiyalar va demokratik saylovlar. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
M8	Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Migratsiyaning yo'nalishlari hamda davomiyligi o'rtasidagi asosiy bog'liqliklar. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi bilan bog'liq asosiy tushunchalar: Immigratsiya. Emigratsiya, reemigratsiya. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
M9	Ommaviy axborot vositalari va axborot kommunikatsiya tizimi. Ommaviy axborot vositalari (OAV) tushunchasi ma'no-mazmuni. Axborotlashgan jamiyat. OAV shakllari va ko'rinishlari. OAVning maqsadlari va vazifalari. OAV va axborot kommunikatsiya tizimi. OAVning ijtimoiy fikrni shakllantirishga ta'siri. OAVning zamonaviy ko'rinishlari. Internet, ijtimoiy tarmoqlar. Axborotning ochiqligi, shaffofligi va uning demokratik xarakteri. "Siyosiy kommunikatsiya" tushunchasi. Siyosiy kommunikatsiya tarkibi. Siyosiy kommunikatsiyalarni turkumlash. O'zbekistonda axborot sohasidagi islohotlar va uning demokratik jamiyat rivojiga ta'siri.
M10	Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy me'yorlar. Jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muxitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir. Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar ko'pchilik tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va

	yangi me'yorlar o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir.
M11	Aholini ijtimoiy muxofaza qilishda davlat va nodavlat jamg'armalari. Xayriya jamg'armalari. Davlat ijtimoiy jamg'armalari. Pensiya jamg'armasi. Bandlikka ko'maklashish jamg'armalari. Kasaba uyushmalari jamg'armalari. Mahalla xayriya jamg'armalari. Navro'z nodavlat jamg'armasi.
M12	Xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlar. "Xalqaro siyosat", "Xalqaro siyosiy tizim", "xalqaro munosabatlar" tushunchalari ma'no-mazmuni. Xalqaro munosabalariga ta'sir etuvchi omillar. Xalqaro munosabatlarning asosiy sub'yektlari. Xalqaro munosabatlarning asosiy rivojlanish tendensiyalari. Xalqaro munosabatlar haqidagi nazariyalar va qarashlar. Xalqaro tashkilotlar va ularning asosiy turlari. Tashqi siyosat va uni amalga oshirish shakllari. Davlatlar tashqi siyosatining shakllanishi va amalga oshirish mexanizmlari. Ichki siyosiy vaziyatlarni tahlil qilish metodikasi. Xalqaro siyosiy vaziyatlarni tahlil qilish metodikasi.
M13	Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Ijtimoiy himoyani mahalla darajasida. og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalar. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlari. Ijtimoiy xizmatlar. Aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar.
M14	Hozirgi dunyoning global muammolari. Hozirgi dunyoning global muammolari: tinchlikni saqlash, qurolsizlanish va termoyadro urushining oldini olish. Kambag'allik va qashshoqlik muammolari. Ekologik, demografik va giyohvandlik muammolari.
M15	Gender muammosining kelib chiqishi va hal etilishi. Feministik nazariyaning gender konsepsiyasiga aylanishining tarixiy genezisi. Gender yondashuvi nuqtayi nazaridan siyosiy ishtirok masalalari. O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashning huquqiy jihatlari.
M16	Fuqarolik jamiyatining mohiyati va xususiyatlari. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning mohiyati. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi asosiy siyosiy-huquqiy ta'limotlar. Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos belgilari va xususiyatlari.
M17	O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni huquqiy ta'minlash. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining tashkiliy-huquqiy asoslari. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari. Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari hamda ular faoliyatini takomillashtirish. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida inson huquqlarining ta'minlanishi.
M18	O'zbekistonning ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustivor yo'nalishlari. Ijtimoiy siyosat- O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustivor yo'nalishi. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil olish. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.
M19	Siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik. Siyosiy ong tushunchasi, uning tuzilishi va darajalari, Siyosiy madaniyat tushunchasi, uning mohiyati, vazifasi, va asosiy elementlari, Siyosiy va siyosiy madaniyatni shakillantirish muammolari.
III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti	
1-semestr. Ijtimoiy siyosat (26)	
S1	Ijtimoiy siyosat fanining predmeti, maqsad va vazifalari
S2	Ijtimoiy siyosat muammolari.

S3	Ilk siyosiy qarashlar va nazariyalarning paydo bo'lishi hamda rivojlanish bosqichlari.
S4	Ijtimoiy siyosat va prognozni amalga oshirishda ijtimoiy institutlarning o'rni.
S5	Jamiyat farovonligi va tengsizlik
S6	Ijtimoiy rivojlantirishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish.
S7	Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasi
S8	Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda mahalla institutining o'rni
S9	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida.
S10	Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi.
S11	Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi.
S12	Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi
S13	Yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi.
S14	Keksalarni ijtimoiy himoyalash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari
S15	Ijtimoiy sohani rivojlantirish zaruriyati
S16	Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning xususiyatlari va mexanizmlari
S17	O'zbekistonning ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustivor yo'nalishlari
S18	Ijtimoiy ta'minot tizimining shakillanishi va rivojlanishi.
S19	Pensiya tizimining mohiyati va uning isloh qilish
2-semestr. Siyosatshunoslikka kirish II.(40)	
S1	Ijtimoiy sug'urtaning mazmuni va mohiyati.
S2	Bola huquqlarining asosiy kafolatlari
S3	Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy siyosatni amalga oshirish modellari
S4	Qashshoqlikni tadqiq etish tarixi
S5	Demografik siyosat va bashorat
S6	Ijtimoiy siyosatni sotsiologik tadbiq etish muammolari
S7	Siyosiy institutlar va jarayonlar
S8	Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari
S9	Ommaviy axborot vositalari va axborot kommunikatsiya tizimi
S10	Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy me'yorlar
S11	Aholini ijtimoiy muxofaza qilishda davlat va nodavlat jamg'armalari
S12	Xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlar
S13	Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish.
S14	Hozirgi dunyoning global muammolari.
S15	Gender muammosining kelib chiqishi va hal etilishi
S16	Fuqarolik jamiyatining mohiyati va xususiyatlari.
S17	O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni huquqiy ta'minlash
S18	O'zbekistonning ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustivor yo'nalishlari.
S19	Siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik

Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talablar:

“Ijtimoiy siyosat ” fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Zamonaviy jamiyatda global muammolalar.
2.	Evropa integratsiyasi va sotsial siyosatning rivojlanishi.
3.	Globalizatsiya sharoitida sotsial siyosatda ana'naviy modellar krizisi.

4.	Davlat ijtimoiy siyosat sub' ekti sifatida.
5.	Sotsial-iqtisodiy jarayonlarda davlat ulushini aniqlash: qiyosiy tahlil.
6.	Davlatning sotsial byudjeti va uning shakllanish manbai.
7.	Uzoq muddatli, maqsadli ijtimoiy dasturlar.
8.	Soliq tizimi davlat sotsial siyosati ta' minotining omili sifatida.
9.	Ijtimoiy muammolarni xal etishda kreditning roli.
10.	Inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish.
11.	Ta' lim tizimining rivojlanishi inson kapitali sifatini oshirishdagi muhim omil.
12.	Ta' lim tizimida davlatning roli va vazifasi.
13.	O'zbekistonda aholi salomatlilik darajasi.
14.	Sotsial tengsizlik va uni o'lchash usullari.
15.	Aholining kam ta' minlangan qatlamiga asosiy yondoshuvlar..
16.	Qashshoqlik va eksklyuziya.
17.	Iqtisodiy faol aholi qatlaminin tuzilishi va dinamikasi.
18.	Sotsial hamkorlik: mazmuni, tuzilishi, vazifasi.
19.	Aholini ijtimoiy himoyalash ijtimoiy davlat instituti sifatida.
20.	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tuzilishi.
21.	Ijtimoiy imtiyozlar.
22.	Manzilli va kategoriyali ijtimoiy qo'llash.
23.	O'zbekistonda pensiya tizimi va uning shakllanishi.
24.	Imkoniyati cheklanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning o'ziga xosligi.
25.	O'zbekistonda yoshlar siyosati.
26.	Demografik siyosatning maqsadi va vazifasi.
27.	Ichki va xalqaro migratsiya, uning sabablari va mexanizmi.
28.	Davlat migratsion siyosatining asosiy modeli.
29.	Tadbirkorlik faoliyatida xayriya masalalari.
30.	Innovatsii iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish omili sifatida.
31.	Intellektual texnologiyalarning rivojlanishi va ilimni boshqarish.
32.	Hayot sifatini ob' ektiv va sub' ekti baholash
33.	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida davlatning roli.
34.	O'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan olib borilayotgan (manzilli) adresli ijtimoiy himoya.
35.	Ijtimoiy himoya barqarorlik omili.
36.	Mehnat nogironlarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda sotsial siyosat tizimi.

37.	O'zbekistonda ayollarni ijtimoiy himoyalash tizimi.
38.	Ijtimoiy himoyani amalga oshirishda jamoatchilik nazorati.
39.	Mahalla tizimi faoliyatida "Ijtimoiy himoya".
40.	Aholini ijtimoiy muhofaza qilish: tushunchasi, mohiyati va mazmuni
41.	Ijtimoiy muhofaza tamoyillari va yo'nalishlari.
42.	Sug'urtali tibbiyotning joriy etilishi va uning mohiyati.
43.	Nafaqa turlari va miqdorlari.
44.	Moddiy yordamning miqdori, muddatlari va qaror qabul qilish uchun maxsus shartlar.
45.	Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi.
46.	Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi.
47.	Yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi.
48.	Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi.
49.	Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy institutlarning o'рни.
50.	Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasi

"Ijtimoiy siyosat" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - "Ijtimoiy siyosat" fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; - Talaba "Ijtimoiy siyosat" fanining alohida fan sifatida mavqeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. - Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • <i>munozara</i>, • <i>o'z-o'zini nazorat</i>. • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish	
Asosiy adabiyotlar	
A1.	N.T.SHayusupova, N.U.Arabov, D.A.Nasimov. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisodiyot, 2014 -120
A2.	S.To'ycheva, A.Sh.Norbekov. Ijtimoiy siyosat – o'quv qo'llanma- T.: "Fan va ya" nashriyoti 2010, -124
A3.	G'anieva.M.X., Qayumov Q., Sherov.M.B. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik. T.: Fan, 2015. -224
A8.	X.X, Abdurahmonov. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. – O'quv qo'llanma. Toshkent.2016. -134
A9.	Мухитдинова Ф.А. Сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихи. Дарслик. -Т.: ТДҶОИ нашриёти, 2011. -321
Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar	
Q1.	I. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston. 2017. -486 b.
Q2.	Miziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -T.: O'zbekiston, 2017 -592b.
Q3.	Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -T.: O'zbekiston, 2018. -508 b.
Q4.	Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning, ishi ham ulug, hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. -T.: O'zbekiston, 2019. -400 b.
Q5.	Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. -T.: O'zbekiston, 2020. -456 b.
Q6.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.:O'zbekiston, 2021. -464 b.
Q7.	Temur tuzuklari. -T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. -184 b.
Q8.	Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Yangi asr avlodi, 2018. -320 b.
Q9	Otamurodov S, Ergashev I., Akramov Sh. va boshq. Politologiya. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 1998. -252 b.
Q10	Politologiya: Ma'ruzalar matni. / Taqrizchilar: Kim V., Bahronov J.-T., 2000.
Q11	Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar-ul-muluk). -T.: Yangi asr avlodi, 2019. 304 b.
Q12	Parsons S. Introduction to Political Science. Textbook. Pearson. USA, 2017. 528 p.
Q13	Nikkolo Makiavelli. Hukmdor. -T.: Davr Press, 2018. -144 b.
Q14	Макс Вебер. Политика как призвание и профессия. / перевод с немецкого и вступительная статья А.Ф.Филиппов. -М.:Рипол Классик, 2021. -292 с.
Axborot manbalari:	

A1	www.prezident.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
A2	www.uza.uz – O'zbekiston Milliy axborot agentligi
A3	www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal
A4	www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
A5	http://isrs.uz/ - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institute
A6	https://qomus.info - Onlayn ilmiy ensiklopediya
A7	www.ziyouz.uz - Fan va ta'lim portali.
5.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil ²⁴ ₀₈ dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
6.	Fan/modul uchun mas'ul: Negmatova.D. – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsenti
7.	Taqrizchilar: - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsenti (ichki) D.Baxriyeva YU.Xolikov – Samarqand Davlat chet tillar instituti, F.F.n.dots.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova

Sotsiologiya va ijtimoiy ish
kafedra mudiri


dots. I.Negmatov

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar
fakulteti dekani

prof. A.Q. Aymatov

SamDU o'quv ishlari
bo'yicha prorektor

prof. A.Soleev



Handwritten signature/initials in the bottom left corner.

**“Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasida o‘tiladigan “Ijtimoiy siyosat”
fanidan tuzilgan fan dasturiga**


TAQRIZ

“Ijtimoiy siyosat ” fan dasturida talabalarda tafakkur tarzining ko‘rinishlari, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri fikrlash mahorati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Yaratilgan fan dasturi oliy ta‘lim tizimida bakalavr bosqichi talabalari uchun o‘tilgan “Ijtimoiy siyosat ” fanining mazmuni va o‘tilishi tartibini, talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. Shu o‘rinda tafakkur tarzi metodologiyasi fanini o‘qitilishidan maqsad mustaqil fikrlashni, jamiyat, uning asosiy hayot sohalarida kechayotgan murakkab ijtimoiy jarayonlar haqida bilimlar berish orqali falsafiy dunyo qarashni shakllantirish, jamiyatda qiladigan qonunlarning o‘ziga xos jihatlarini jamiyatning real hayoti, unda kechayotgan voqea, jarayonlarni to‘g‘ri anglash qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyatni ilmiy bilim yo‘llari, usullarini qo‘llashdan iborat.

Fan dasturida “Ijtimoiy siyosat ” fani yo‘nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko‘rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ish shakllari va mavzulari, fanni o‘qitish natijalari, ta‘lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo‘shimchalar batafsil bayon etilgan. Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalari qo‘yilgan talabalar, bo‘lajak pedagoglarni o‘z ichiga olgan.

“Ijtimoiy siyosat” fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo‘yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun ta‘lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

**“Sotsiologiya va ijtimoiy ish”
kafedrasi mudiridotsent**


I. Negmatov

**“Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasida o‘tiladigan “Ijtimoiy siyosat” fanidan
tuzilgan fan dasturiga**

TAQRIZ


“Ijtimoiy siyosat” fan dasturida talabalarda tafakkur tarzining ko‘rinishlari, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri fikrlash mahorati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Yaratilgan fan dasturi oliy ta‘lim tizimida bakalavr bosqichi talabalari uchun o‘tilgan “Ijtimoiy siyosat” fanining mazmuni va o‘tilishi tartibini, talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. Shu o‘rinda tafakkur tarzi metodologiyasi fanini o‘qitilishidan maqsad mustaqil fikrlashni, jamiyat, uning asosiy hayot sohalarida kechayotgan murakkab ijtimoiy jarayonlar haqida bilimlar berish orqali falsafiy dunyo qarashni shakllantirish, jamiyatda qiladigan qonunlarning o‘ziga xos jihatlarini jamiyatning real hayoti, unda kechayotgan voqea, jarayonlarni to‘g‘ri anglash qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyatni ilmiy bilim yo‘llari, usullarini qo‘llashdan iborat. Fan dasturida “Ijtimoiy siyosat” fani yo‘nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko‘rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ish shakllari va mavzulari, fanni o‘qitish natijalari, ta‘lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo‘shimchalar batafsil bayon etilgan. Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalari qo‘yilgan talabalar, bo‘lajak pedagoglarni o‘z ichiga olgan.

“Ijtimoiy siyosat” fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo‘yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun ta‘lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Samarqand davlat chet tililar instituti

“Gunmanitar fanlar va axborot texnologiyalari”

kafedrasi dotsenti:


dots. Yu. O. Xolikov
TASDIQLAYMAN
amDCHTI KADRLAR